

ORGANIZMGA QON QUYISH-GEMOTRANSFUZIYA

Akbarova M.S.

Farmakologiya va Fiziologiya kafedra asistenti

Ochilova Z.X.

2-Pediatriya va tibbiy biologiya talabasi

Toshkent pediatriya tibbiyot insituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11383709>

Annotatsiya

Mavzuning dolzarbligi: Butun jahon bòyicha avtohalokatlar ko'payishi bu global muammo hisoblanadi va buning natijasida qon ketish ehtimoli yuqori. Tuğruq paytida onadan qon ketishi, travmalarda va ayrim kasalliklarda qon ketganda albatta bemorga zudlik bilan qon quyish kerak. Shuning uchun qon quyishni chuqur òrganish va tóğri qon quyish shifokorlar uchun asosiy shart hisoblanadi. Mavzuning maqsadi: Ko'p qon yo'qotgan bemorlar uchun gemotransfuziyani o'rganish.

Kalit so'zlar: Aglyutinatsiya, aglyutinogen, aglyutinin, rezus omil, qizil qon tanachalari, oq qon tanachalari, gemotransfuziya, autohemoterapia.

Qon quyish keng tarqalgan transfuziya bòlib, unda qon yoki uning tarkibiy qismlari qon ichiga yuboriladi. Mos kelmaydigan qon quyilganda eritrositlar aglyutinatsiyasi, keyin esa ularning gemolizi sodir bòlishi natijasida gemotransfuzion karaxt holat kelib chiqishi va hattoki òlimga olib kelishi mumkin. Qon quyishda uning omillariga katta e'tibor berish kerak. Eng katta ahamiyat beradigan omillar qon guruhlar va rezus faktordir. 200-300 ml qon quyilganda donor qoni tarkibidagi aglutinin va gemolizlar retsiptiyenti qonida suyulib ketadi va plazmadagi antiaglyutininlar bilan birikadi, eritsotsitlarni yopishtirib qòyish uchun uning miqdori kamlik qiladi. Shuning uchun qon tarkibidagi aglyutininlar va gemolizinlar hisobga olinmaydi.

Qon quyilishida asoratlar kelib chiqishi qon guruhini notòğri aniqlanganligi sabab bòladi. Hozirda A va B aglutinogenlarning bir qancha turi aniqlangan. Shuning uchun hozirgi paytida 1 xil turdagi qonlarni quyish tavsiya etiladi. Yana bir eng katta omil rezus faktor. Rezus faktor 40 dan ortiq antigenlardan tuzilgan murakkab tizimdir. Rezus antigenning eng yuqori tipi—D(85%), eng past tipi—C, E, d, c, e. Avstraliyaliklarda rezus antigenning hech bir turi uchramaydi. Agar rezus musbat qon rezus manfiyga quyilsa, retsiptiyent qonida antirezus aglutinini hosil bòladi. Yana shu holat 2-marta takrorlansa eritrositlar aglutinatsiyaga uchraydi. Qon quyish travmatologiya, jarrohlik, akusherlik saraton va terapiyada qòllaniladi. Onkologiya uchun qon quyish—ba'zi turdagi òsmalar ichki qon ketishga olib kelishi mumkin. Anemiya va qizil qon tanachalarining yetishmasligi gipoksoyaning keyingi rivojlanishiga olib keladi. Onkologiyada qon quyish qon va gemostazning kislorod tashish funksiyasini tiklashga olib keladi. Kòpincha qonning individual komponentlari: qizil qon tanachalari, oq qon tanachalari, plazma yoki trombositlar quyiladi. Agar suyak iligi yukka bardosh bera olmasa va yetarli miqdorda qon hujayralari ishlab chiqara olmasa, u holda ularga trombositlar quyiladi. Qizil qon hujayralarini quyish anemiya uchun ishlatiladi. Past gemoglobin uchun qon quyish—saratoning eng keng tarqalgan turi gemoglobinning pasayishidir. Gemoglobin pasayganda yurakka yuk ortadi. Gematopoetik jarayonlarini bostiradigan kimyoterapiya va radiatsiya terapiyasi gemoglobinni pasayishiga olib keladi. Oğir anemiya holatlarda kimyoterapiya tòxtatilib, qon

quyish tavsiya qilinadi. Qon quyilganda bemorni ahvoli yaxshilanadi. Venadan dumba ichiga qon quyish (autohemoterapia)—bu venadan dumba ichiga qon quyish. Allergistlar, ginekolog, dermatologlar tomonidan qòllaniladi. Kosmetologiya muammoli teri kasalliklarini davolashda kerak bo'ladi. Turli patologiyalarni davolashda gemokorreksiya usulidan ham foydalaniladi. Qon quyishning afzalliklari shundan iboratki— qizil qon tanachalari kislorodni tana orqali yurak va miyaga olib boradi. Hayotni saqlash uchun yetarli kislorod juda zarur. Trombositlar va plazma qon ketishini oldini olishga yordam beradi.

Lekin qon quyish jarayonida ba'zi bir kasalliklarni yuqtirish ehtimoli bor:

OIV: 1.5 million donorlikdan 1 tasi

Gepatit C: 1.2 million donorlikdan 1 tasi

Gepatit B: 293000 xayriyadan 1 tasi

Odamlar qon quyishga turli yòllar bilan munosabatda bòlishi mumkin: Nafas olish muammolari, isitma, titroq, toshmalar, gemolitik transfuzion reaksiya shular jumlasidandir.

Xulosa: Har bir odamga tó'g'ri tekshiruvlar natijasida qon quyish eng muhim vazifa. Masalan 4-qon guruh hamma qon guruhdan qon olsa ham, unga qon beradigan guruhlarining rezus omili va aglutinogen turlari to'g'ri kelmasligi mumkin. Bunday holat kuzatilganda bemorning ahvoli og'irlashish ehtimoli yuqori. Shuning uchun qon quyish katta e'tibor talab etadi.

References:

1. Козинес Г.И Практическая трансфузиология, год издания:2005
2. Бабаджанова Ф.А Кон физиологияси ва биокимёси -2023
3. Рагимова.А.А Трансфузиология
4. Color Atlas of Biochemistry. Jan Koolman, Klaus-Heinrich Roehm-Stuttgart New York-2005 Thieme
5. Гемотрансфузия-статья из большой советской энциклопедии